

Andijon viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarni o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2020 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)

Ish haqi. 2020 yilning yanvar- **iyun** oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:


(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




Sanoat



• **Sanoat** iqtisodiy faoliyat turidagi 63 ta korxonada 34,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 736,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 27,7 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3775,2 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 34,8 % ga o'sdi.




Qurilish



• **Qurilish** faoliyat turidagi 10 ta korxonada 0,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 16,3 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,6 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3736,3 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 48,1 % ga o'sdi.



Savdo




• **Savdo** faoliyat turidagi 28 ta korxonada 3,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 36,8 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,4 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2114,9 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga o'sdi.


• **Tashish va saqlash** faoliyat turidagi 19 ta korxonada 2,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 19,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,7 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1540,4 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 45,5 % ga o'sdi.



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




• **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** sohasida 5 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 0,7 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,1 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1088,8 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 33,7 % ga o'sdi.


• **Axborot va aloqa** sohasida 5 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 12,3 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,5 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2218,7 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga o'sdi.



Axborot va aloqa



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik




• **Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik** iqtisodiy faoliyat turidagi 41 ta korxonada 4,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 124,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,7 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4984,1 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 23,1 % ga o'sdi.


• **Ta'lim sohasi** iqtisodiy faoliyat turidagi 1525 ta korxonada 86,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 43,7 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 965,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 36,3 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1962,4 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 19,5% ga o'sdi.



Ta'lim



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



• **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 76 ta korxonada 38,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 392,8 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,8 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1778,6 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 26,5 % ga o'sdi.

• **Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 387 ta korxonada 24,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 12,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 333,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,5 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2244,7 ming so'mni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 26,6 % ga o'sdi.

Umuman, barcha turdagi xo'jalik faoliyati uchun joriy 2020 yilning yanvar- **iyun** oylarida Andijon viloyatidagi **o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2376,7 ming so'mni** tashkil qilib (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantiruvchi, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar hamda jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlarni ham o'z ichiga oladi), 2019 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 25,5 foizga o'sdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi


(2020 yil yanvar- iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik 4984,1 ming so'mni tashkil etmoqda. Keyingi o'rinlarda qurilish 3736,2 ming so'mga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1088,8 ming so'mni tashkil etmoqda.

Shahar va tumanlar kesimidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2020 yil yanvar- iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'mda)



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka (3821,0 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 160,8 foizga o'sdi), Andijon (2852,7 ming so'm viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 120,0 foizga o'sdi) shaxrida kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati

(2020 yil yanvar- iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, foizda)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar- iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlarisiz, ming.so`mda)

	2019 yil	2020 yil	U'sish sur'ati, %
Andijon viloyti	1893,8	2376,7	125,5
<i>shaxarlar</i>			
sh. Andijon	2262,2	2852,7	126,1
sh. Xonobod	1928,4	2550,0	132,2
<i>tumanlar</i>			
Oltinku'l	1365,3	1530,8	112,1
Andijon	1499,4	1951,1	130,1
Baliqchi	1376,5	1582,3	115,0
Bo'ston	1381,2	1687,5	122,2
Buloqboshi	1381,7	1708,7	123,7
Jalaquduq	1650,6	1966,1	119,1
Izboskan	1502,3	1810,1	120,5
Ulug'nor	1456,0	1687,0	115,9
Qu'rg'ontepa	1578,3	1830,1	116,0
Asaka	2788,8	3821,0	137,0
Marxamat	1476,6	1770,1	119,9
Shaxrixon	1400,1	1813,8	129,6
Paxtaobod	1602,5	1872,2	116,8
Xu'jaobod	1716,8	2172,2	126,5

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2020 yil fevral oyida **679330** so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-sentabrdagi 775-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Demografiya va mehnat statistika bo'limi
Telefon: (74) 228-30-54
(371) 230-82-78